

O'zbekistondagi Yaponiya Elchixonasi quyidagi lavozim uchun ish o'rni mavjud ekanligini e'lon qiladi

[Umumiy ma'lumotlar]

1. Ishga qabul qilinuvchilar soni
1 kishi

2. Ish joyi

O'zbekistondagi Yaponiya Elchixonasi

3. Topshiriladigan ish va vazifalar

Umumiy-siyosiy bo'lim hamda iqtisodiy bo'lim ishlariga ko'maklashish (rus tilida verbal notalar tayyorlash, rus tilidagi hujjatlarni tahrir qilish, yapon tilidagi hujjatlarni rus tiliga tarjima qilish, rus, o'zbek tillarida hujjatlar tayyorlash, turli xildagi ma'lumotlarni to'plash, tegishli tashkilot mas'ullari bilan aloqaga chiqish va hokazo).

4. Ish sharoitlari va boshqalar

(1) Shartnoma muddati

2025 yil 1-iyul sanasidan boshlanadi.

※ 3 oylik sinov muddatidan so'ng, rasman lavozimga qabul qilinadi.

(2) Oylik maoshi hamda mukofot pullari

Elchixona qoidalariga muvofiq belgilanadi.

(3) Ish jadvali

Elchixona ish vaqtি bo'yicha ishlanadi. Biroq, zaruriy hollarda ushbu vaqtadan tashqari vaqtarda ham ishlashingizni so'rashimiz mumkin.

[Arizachilarga qo'yiladigan talablar]

1. Fuqarolik

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi lozim

2. Talab qilinadigan malaka, qobiliyat va sifatlar.

(1) Oliy ta'lim muassasasi (yoki unga teng muassasa)ni bitirgan yoki bitirish arafasida bo'lishi.

- (2) rus, yapon, o'zbek tillarida mehnat faoliyatini bemalol bajara oladigan darajada yuqori bilimga ega bo'lishi. Undan tashqari mehnat faoliyatini bajarish uchun yetarli minimal ingliz tilini bilishi.
- (3) o'z mehnat vazifalariga jiddiylik va kuchli ishtiyoq bilan yondasha olishi.

3. Boshqa talablar

- (1) Toshkent shahrida doimiy ro'yxatga olingan bo'lishi.
- (2) Jismonan hamda ruhan sog'lom bo'lishi.
- (3) Muqaddam sudlanmagan bo'lishi.

[Ariza topshirish tartibi]

1. Quyidagi ariza uchun kerakli hujjatlar 2025-yil, 30-may, soat 17:30 gacha pochta orqali jo'natilinishi, shaxsan (elchixonaga) olib kelinishi yoki elektron pochta orqali (hujjatlar ilova qilingan holda) jo'natilinishi kerak. Shaxsiy ma'lumotlar faqat tanlov maqsadida ishlatilinadi va maxfiylik qat'iy himoya qilinadi (Ish arizasi uchun topshirilgan hujjatlaringizni qaytarilmasligiga e'tibor bering).

(1) Rezyume: rus, ingliz yoki yapon tilida to'ldirib, ism-sharif, rasm, tug'ilgan sana, yashash joyi, telefon raqami, mehnat faoliyati hamda malakalaringizni ko'rsatib o'ting.

- (2) passport nusxasi
- (3) diplom hamda boshqa malakalarni tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi.

2. Tanlov jarayoni va jadvali.

Ariza topshirishning oxirgi muddati: 2025-yil, 30-may soat 17:30 gacha

Birinchi bosqich: hujjatlar asosida saralash (faqat birinchi bosqichdan o'tgan arizachilar, keyingi kun habardor qilinadi).

Ikkinchi bosqich: Yozma imtihon hamda suhbat.

[Ariza topshirish manzili]

O'zbekistondagi Yaponiya Elchixonasi, Mas'ul shaxs: Masuda
Quyidagi electron pochta orqali hujjatlaringizni jo'natishingiz mumkin.

homepage@ts.mofa.go.jp